



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'Ichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish .....	55
<a href="#">B. X. Sharopov</a>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi .....	59
<a href="#">Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</a>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<a href="#">J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</a>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari .....	67
<a href="#">Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</a>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<a href="#">S. A. Qarshiboyev</a>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<a href="#">Suyunov Rustam Sadriddinovich</a>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari .....	78
<a href="#">Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</a>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<a href="#">Umarov Azizbek Vaxobovich</a>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>	



# AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

UOK: 378.016:004

Umarov Azizbek Vaxobovich  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zaruratini nazariy-metodologik asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi pedagogik ta'lim kontekstida mediakompetentlikning tarkibiy tuzilmasi, rivojlanish mexanizmlari va didaktik shartlarini aniqlash hamda kompetensiyaviy yondashuv doirasida integrativ modelni taklif etishdan iborat. Metodologiya sifatida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan paradigmlar, kontent-tahlil, qiyosiy-tahliliy va konseptual modellashtirish usullari qo'llanildi. Ilmiy yangilik mediakompetentlikni bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy bog'langan ko'p komponentli konstruksiya sifatida talqin qilish, uning indikatorlari va bosqichma-bosqich rivojlantirish shartlarini asoslash hamda pedagogik amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan baholash mezonlari tizimini konseptuallashtirish bilan belgilanadi. Natijalar ta'lim mazmuni, metodlari va raqamli muhitdagi axborot xavfsizligi kompetensiyalarini integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** mediakompetentlik; bo'lajak pedagog; axborotlashgan jamiyat; media ta'lim; tanqidiy fikrlash; raqamli savodxonlik; axborot xavfsizligi.

**Abstract:** This article is devoted to the theoretical and methodological substantiation of the need to develop media competence among future teachers in the conditions of the information society. The purpose of the study is to identify the structural components, development mechanisms, and didactic conditions of media competence within the context of pedagogical education, as well as to propose an integrative model based on the competency-based approach. The methodology includes a systemic approach, competency-based and activity-oriented paradigms, content analysis, comparative-analytical analysis, and conceptual modeling methods. The scientific novelty lies in interpreting media competence as a multi-component construct closely related to the professional training of future teachers, substantiating its indicators, stage-by-stage development conditions, and conceptualizing an assessment criteria system applicable in pedagogical practice. The results highlight the necessity of integrating educational content, teaching methods, and information security competencies within the digital environment.

**Key words:** media competence; future teacher; information society; media education; critical thinking; digital literacy; information security.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития медиакompetentности будущих педагогов в условиях информационного общества. Цель исследования заключается в определении структурных компонентов медиакompetentности, механизмов её развития и дидактических условий в контексте педагогического образования, а также в разработке интегративной модели в рамках компетентностного подхода. В качестве методологии использованы системный подход, компетентностная и деятельностно-ориентированная парадигмы, методы контент-анализа, сравнительно-аналитического анализа и концептуального моделирования. Научная новизна исследования определяется трактовкой медиакompetentности как многокомпонентной конструкции, тесно связанной с профессиональной подготовкой будущего педагога, обоснованием её индикаторов, этапов формирования и системы критериев оценки, применимых в педагогической практике. Результаты исследования показывают необходимость интеграции содержания образования, методов обучения и компетенций информационной безопасности в цифровой среде.

**Ключевые слова:** медиакompetentность; будущий педагог; информационное общество; медиаобразование; критическое мышление; цифровая грамотность; информационная безопасность.

## KIRISH

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi nafaqat bilimlarni uzatish, balki axborotni izlash, saralash, talqin qilish, ishlab chiqish va mas'uliyat bilan tarqatish madaniyatini shakllantirish vazifasini ham zimmasiga oladi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik tavsiya tizimlari pedagogik muloqot va ta'lim

mazmunini tezkor o'zgartirayotgan bir paytda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi an'anaviy didaktik ko'nikmalar bilan cheklanib qolmaydi; u media oqimlari bilan ishlash, ularning ta'sirini tahlil qilish hamda o'quvchi shaxsining axborotga munosabatini tarbiyalashni ham qamrab oladi.

Mediakompetentlik shu nuqtada bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi uchun asosiy ko'rsatkichlardan biriga aylanadi: u tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, raqamli etik me'yorlar, kommunikativ strategiyalar va media mahsulot yaratish amaliyotlarini birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tadqiqotlarda media savodxonlik va media kompetensiya tushunchalari ko'pincha demokratik ishtirok, axborot xavfsizligi va ta'lim sifati bilan bog'lanadi, shuningdek o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida raqamli pedagogika bilan uzviy integratsiya talab etiladi <sup>[1]</sup>.

Shu bilan birga, mediakompetentlikning pedagogik ta'limdagi mazmuni ko'p hollarda fragmentar yoritiladi: ayrim dasturlarda u faqat texnologik ko'nikmalar doirasida, boshqalarida esa faqat tanqidiy tahlil komponenti sifatida tushuntiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda media savodxonlik va mediakompetentlik tushunchalari raqamli pedagogika, axborot xavfsizligi hamda tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchilar mediakompetentlikni pedagogning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va media mahsulot yaratish qobiliyatlarini qamrab oluvchi integrativ kompetensiya sifatida baholaydilar.

Ilmiy manbalarda mediakompetentlikning motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlari alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bu yondashuv pedagogning media muhitdagi kasbiy va axloqiy mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, elektron resurslardan foydalanish va raqamli ta'lim vositalarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Biroq mediakompetentlikni bo'lajak pedagogning kasbiy identifikatsiyasi, axborot xavfsizligi va etik qarorlar bilan bog'liq holda tizimli rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, manipulyativ media va deepfake texnologiyalarining keng tarqalishi pedagoglarning mediakompetentligiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirayotgani ta'kidlanadi. Shu sababli mediakompetentlikni rivojlantirish nafaqat texnologik ko'nikmalarni, balki tanqidiy tahlil, raqamli etik me'yorlar va mas'uliyatli media faoliyatini ham qamrab olishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mavjud ilmiy yondashuvlar mediakompetentlikni turlicha talqin qiladi: kompetensiyaviy yondashuv uni o'lchanadigan natijalar tizimi sifatida ko'rsa, madaniyatshunos yondashuv media bilan o'zaro ta'sirni shaxsiy va ijtimoiy tajriba sifatida tahlil qiladi. Rus va xalqaro media ta'lim maktablarida mediakompetentlikning ko'p darajali modeli, shaxsning motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlari ajratib ko'rsatiladi; bu yondashuv pedagog shaxsining media muhitdagi mas'uliyatini ham alohida ta'kidlaydi <sup>[2]</sup>.

Mahalliy tadqiqotlarda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, elektron o'quv materiallari ishlab chiqish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayoniga joriy etish masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, mediakompetentlikni aynan bo'lajak pedagogning kasbiy identifikatsiyasi, axborot xavfsizligi va etik tanlovlar bilan bog'liq holda tizimli shakllantirish mexanizmlari yetarlicha konseptualashtirilmagan <sup>[3]</sup>.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontent, deepfake va manipulyativ reklama kabi hodisalar pedagogik muhitga kirib kelgani sari, mediakompetentlikka bo'lgan talab faqat texnik emas, balki metodologik va axloqiy o'lchamda ham keskin ortmoqda <sup>[4]</sup>.

Ushbu maqolaning maqsadi axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zaruratini nazariy asoslash, mediakompetentlikning tarkibiy tuzilmasini aniqlashtirish, uni shakllantirishning didaktik shartlarini belgilash hamda baholash mezonlari tizimini konseptual darajada taklif etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- mediakompetentlikning pedagogik ta'lim kontekstidagi konseptual chegaralarini ajratish;
- uning komponentlari va indikatorlarini asoslash;
- rivojlantirish jarayonini bosqichlar bo'yicha modellashtirish;
- ta'lim mazmuni va metodlari integratsiyasi uchun metodik yo'nalishlarni belgilash.

Ilmiy yangilik mediakompetentlikni bo'lajak pedagogning kasbiy kompetensiyalar tizimida transvers kompetensiya sifatida talqin qilish, ya'ni u fanlararo va faoliyatlararo ko'chiriladigan malaka sifatida shakllanishini asoslash bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyat esa pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalarini, amaliyot dasturlari va baholash vositalarini takomillashtirish uchun nazariy tayanch va mezonlar to'plamini berishidir.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, uning asosini tizimli yondashuv tashkil etdi: mediakompetentlik pedagog shaxsining motivatsiya, bilim, amaliy faoliyat va refleksiya birliklarida namoyon bo'ladigan integrativ sifat sifatida ko'rib chiqildi.

Kompetensiyaviy yondashuv mediakompetentlikni o'quv natijalari va indikatorlar orqali ifodalash imkonini berdi, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa uni real pedagogik vaziyatlarda media bilan ishlash amaliyotlari orqali shakllantiriladigan ko'nikmalar majmui sifatida izohlashga xizmat qildi. Tadqiqot ma'lumotlar bazasi sifatida pedagogik ta'lim, media ta'lim, raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, normativ-metodik manbalar hamda o'qituvchilar tayyorlash amaliyotiga doir tahliliy materiallar tanlandi.

Kontent-tahlil usuli yordamida mediakompetentlikka oid ta'riflar, komponentlar va baholash yondashuvlari kodlandi va umumlashtirildi; qiyosiy-tahliliy usul turli ilmiy maktablar o'rtasidagi konseptual farqlarni aniqlash uchun qo'llanildi. Konseptual modellashtirish jarayonida mediakompetentlikning komponentlari, indikatorlari, rivojlanish bosqichlari va didaktik shartlari o'zaro bog'langan tizim sifatida qurildi.

Metodologik tanlovning ilmiy asosligi shundaki, mediakompetentlik hodisasi bir vaqtning o'zida psixologik, pedagogik, kommunikativ va texnologik jihatlarni mujassamlashtiradi, shuning uchun uni faqat bitta nazariy prizma orqali tushuntirish yetarli emas; integrativ metodologiya esa ta'riflar parchalanganligini kamaytiradi va amaliy tavsiyalarni aniqroq shakllantirishga imkon beradi <sup>[1; 2]</sup>.

Tadqiqot natijasida bo'lajak pedagogning mediakompetentligi quyidagi tarkibiy tuzilma orqali konseptualashtirildi: motivatsion-aksiologik komponent, kognitiv-analitik komponent, operatsion-amaliy komponent va refleksiv-etik komponent.

**Motivatsion-aksiologik komponent** media bilan ishlashga ichki tayyorgarlik, kasbiy mas'uliyat, ochiqlik va uzluksiz o'rganishga yo'nalganlik bilan tavsiflanadi; indikator sifatida pedagogning media muhitdagi xulq-atvor me'yorlarini tan olishi, mualliflik huquqi va akademik halollik qadriyatlariga sodiqligi, o'quvchi manfaatini ustuvor qo'yishi ajratildi.

**Kognitiv-analitik komponent** axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish, dalil va fikrni farqlash, manipulyatsiya usullarini aniqlash, algoritmik tavsiyalarni tushunish hamda mediamatnlarni didaktik maqsadda talqin qilishni qamrab oladi.

**Operatsion-amaliy komponent** media vositalaridan pedagogik maqsadda foydalanish, o'quv resurslarini yaratish, multimodal kontentni loyihalash, tarmoq muloqotini boshqarish, onlayn hamkorlikni tashkil etish kabi ko'nikmalar bilan ifodalandi.

**Refleksiv-etik komponent** esa pedagogning media amaliyotini baholashi, xatolarni tahlil qilishi, xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilishi, shaxsiy ma'lumotlar va raqamli iz masalalarida ehtiyotkorlikni ta'minlashi bilan belgilandi.

Rivojlantirish jarayoni uch bosqichda tasvirlandi:

- diagnostik-oriyentatsion bosqichda talabalar media odatlari, axborotga ishonch mezonlari va raqamli xavfsizlik amaliyotlari nuqtai nazaridan aniqlanadi;
- mazmuniy-faoliyat bosqichida media tahlil va media mahsulot yaratish integratsiyalashgan topshiriqlar orqali yo'lga qo'yiladi;
- integrativ-refleksiv bosqichda esa pedagogik amaliyot jarayonida media vositalaridan foydalanish natijalari refleksiya qilinadi va individual rivojlanish trayektoriyasi shakllantiriladi.

Didaktik shartlar sifatida to'rtta yo'nalish belgilandi:

- o'quv rejasiga media ta'lim mazmunini fanlararo integratsiya qilish;
- topshiriqlarni real media vaziyatlarga yaqinlashtirish va autentik mediamatnlarni bilan ishlash;
- baholashni mezonli yondashuv asosida portfel, loyiha va holat tahlili orqali tashkil etish;
- raqamli axborot xavfsizligi va etik me'yorlarni har bir modulga singdirish.

Baholash mezonlari tizimi komponentlar bilan mos ravishda to'rt blokka ajratildi va har bir blok uchun bilim, amaliy bajarish hamda refleksiya indikatorlari aniqlashtirildi; natijada mediakompetentlikni faqat texnik mahorat emas, balki qaror qabul qilish sifati va mas'uliyat bilan ham o'lchash imkonini beruvchi konseptual karkas shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan konseptual natijalar mediakompetentlikni bo'lajak pedagogning kasbiy kompetensiyalari tizimida markaziy transvers kompetensiya sifatida ko'rishga asos beradi, chunki u didaktik dizayn, kommunikatsiya, tarbiya va baholash jarayonlarining barchasiga kirib boradi.

Xalqaro yondashuvlarda media savodxonlik ko'pincha fuqarolik ishtiroki va tanqidiy fikrlash bilan bog'langan bo'lsa, ta'lim amaliyotida u o'qituvchining raqamli pedagogika vositalarini maqsadga muvofiq tanlashi bilan bog'lanadi <sup>[1]</sup>.

Biz taklif etgan komponentlar tizimi ushbu yo'nalishlarni birlashtirib, pedagogik ta'limdagi fragmentarlikni kamaytiradi: texnologik ko'nikmalarni kognitiv-analitik va refleksiv-etik komponentlar bilan muvozanatlash mediakompetentlikni "platformadan foydalanish" darajasida qamab qo'ymaslikka xizmat qiladi. Rus media ta'lim maktabida mediakompetentlikning motivatsion va refleksiv qatlamlari alohida urg'u bilan berilishi, shuningdek shaxsning media madaniyati bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar bilan qiyoslaganda, ushbu maqoladagi model ham xuddi shunday integrativ yo'nalishni saqlagan holda axborot xavfsizligi va algoritmik muhitni tushunish indikatorlarini aniqroq kiritishi bilan farqlanadi <sup>[2]</sup>.

Mahalliy ta'lim kontekstida esa mediakompetentlikni raqamli resurslardan foydalanish bilan tenglashtirish tendensiyasi hali ham uchraydi; taklif etilgan mezonlar tizimi aynan shu cheklovni bartaraf etib, bo'lajak pedagogning mediamatnlarni talqin qilishi, etik tanlovlar qilishi va o'quvchi uchun xavfsiz raqamli muhit yaratish mas'uliyatini baholash maydoniga olib kiradi <sup>[3]</sup>.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, pedagogik OTMlarda mediakompetentlikni alohida, izolyatsiyalangan kurs sifatida emas, balki metodika, pedagogik mahorat, tarbiya nazariyasi, fanlarni o'qitish metodikasi va pedagogik amaliyot bilan integratsiyalangan modul sifatida qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. Media mahsulot yaratish bo'yicha topshiriqlar ham faqat kreativlikni emas, manba tekshiruv, dalillash, auditoriya tahlili, mualliflik huquqi va ma'lumotlarni himoyalash kabi talablarni o'z ichiga olganda, mediakompetentlikning kasbiy sifatga aylanishi tezlashadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovi shundaki, u asosan nazariy modellashtirishga tayanadi va keng ko'lamli empirik sinovlar bilan mustahkamlanmagan; kelajakdagi izlanishlarda taklif etilgan indikatorlar bo'yicha diagnostik instrumentlarni psixometrik tekshirish, turli hudud va yo'nalishdagi pedagogik dasturlarda modelning moslashuvchanligini solishtirish zarur.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida yaratiladigan kontentning o'quv jarayoniga kirib borishi fonida akademik halollik, mualliflik va mas'uliyat masalalari yanada murakkablashmoqda; bu holat mediakompetentlikni raqamli etik kompetensiyalar bilan chuqurroq integratsiya qilishni talab etadi <sup>[4; 5]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini ta'minlash, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini shakllantirish hamda raqamli muhitdagi xavf-xatarlarni boshqarish nuqtai nazaridan zarur kasbiy talab sifatida namoyon bo'ladi.

Mediakompetentlik motivatsion-aksiologik, kognitiv-analitik, operatsion-amaliy va refleksiv-etik komponentlardan tashkil topgan integrativ konstruktsiya sifatida asoslandi va uning rivojlanishi diagnostik-orientatsion, mazmuniy-faoliyat hamda integrativ-refleksiv bosqichlarda kechishi konseptual tarzda ko'rsatildi.

Ta'lim mazmunini fanlararo integratsiya qilish, autentik mediamatnlarni ishlatish, mezonli baholashni portfel va loyiha faoliyati orqali yo'lga qo'yish hamda axborot xavfsizligi va etik me'yorlarni tizimli singdirish mediakompetentlikni barqaror shakllantirishning asosiy didaktik shartlari sifatida umumlantirildi. Taklif etilgan model va mezonlar tizimi pedagogik ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish hamda bo'lajak o'qituvchining raqamli muhitdagi kasbiy tayyorgarligini yaxlit tarzda baholash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO Publishing, 2011. 192 p.
2. Федоров А. В. Медиаобразование: история, теория и методика. Ростов-на-Дону: ЦББР, 2009. 450 с.
3. Abdullayeva N. M. Pedagogik ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 200 b.
4. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003. 219 p.
5. Войсунский А. Е. Психология и Интернет. Москва: Акрополь, 2010. 352 с.
6. Ergashev B. S. Axborot xavfsizligi asoslari va media muhitda himoya madaniyati. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2020. 176 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.